Emro Science and Education
International open-access scientific journal
Journal homepage: https://journal.emro.uz
OPEN ACCESS

CONFERENCE PAPER OPEN ACCESS

Vol. 1 No. 4 (2024) · "Milliy iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish va yuqori iqtisodiy o'sish sur'atlarini t... DOI: 10.5281/zenodo.24320851

ta'minlashning ustivor yo'nalishlari" mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman

# TUGALLANMAGAN QURILISH VA QURILISH OB'EKTLARI TANNARXINI TAHLILI

Yakubov Ulug'bek Kosimovich
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

**Annotatsiya.**
Qurilish milliy iqtisodiyotning mustaqil alohida tarmog'i bo'lib, yangi asosiy fondlarni yaratish hamda faoliyat yurgizayotgan ishlab chiqarish va noishlab chiqarish obyektlarini qayta qurish, kengaytirish, ta'mirlash va texnik qayta jihozlash uchun mo'ljallangan. O'zbekiston Respublikasida qurilish ishlari bo'yicha makroiqtisodiy ko'rsatkiclarining o'sish tendensiyasi kuzatilgan. Statistik ma'lmotlarga ko'ra 2022 yil qurilishda ijro 130791 mlrd so'mni, 2023 yilda 150793 mlrd so'mni tashkil etib, 2024 yilda 235581 mlrd so'm bo'lishi kutilgan. Mazkur ko'rsatkichlarning 2025-2026-2027 yillarda mos ravishada o'tgan davrlarga nisbatdan 14,2; 10,2; 7,3 foizga o'sishi prognoz qilingan. Shu sababdan, qurilishda faoliyat ko'rsatayotgan biznes sub'ektlari faoliyatini iqtisodiy tahlili asosida samarali boshqaruv qarorlarini ishlab chiqish davr talabi hisoblanadi.

**Kalit so'zlar.**
Qurilish, tugallanmagan qurilish, qurilish obyekti, ko'rsatkich, tannarh, smeta, pudrat usulida qurish, xo'jalik hisobida qurish.

**Kirish.**
Qurilishning samarali faoliyatida ilmiy-texnikaviy taraqqiyotning jadallashuvi, moddiy-texnika baza va ishlab chiqarish tuzilishining takomillashtirilishi kabi omillar muhim o'rin tutadi. Qurilishda obyektlarning muddatlarini sezilarlarli darajada kamaytirish va me'yordan ortiq tugallanmagan qurilishga barham berish, investitsiya, o'z mablag'lari va bank kreditlarining rolini oshirish zarur. Kapital qo'yilmalar yangi qurilishga, qayta tiklashga, biznes su,yektlarni kengaytirish va texnik qayta qurollantirishga bo'lgan xarajatlarni o'z ichiga oladi. Kapital qurilish ikkita: pudrat va xo'jalik usulida amalga oshiriladi. Qurilishni pudrat usulida ishlar ixtisoslashgan tashkilotlar tomonidan olib boriladi. Ixtisoslashgan tashkilotlar qurilish buyurtmachilari bilan tuzilgan pudrat shartnomasiga asosan pudratchi hisoblanadi. Pudrat shartnomasi (rus. podryad — bir yo'la) — fuqarolik-huquqiy bitim, unga ko'ra, bir taraf (pudratchi) ikkinchi taraf (buyurtmachi)ning topshirig'iga binoan, muayyan ishni bajarish va uning natijasini buyurtmachiga belgilangan muddatda topshirish majburiyatini oladi[104]. Pudrat shartnomasi buyurtmachi va pudratchi o'rtasidagi munosabatlar me'yorini qat'iy belgilovchi va shartnomadagi majburiyatlarning bajarilmaganligi uchun iqtisodiy javobgarligini belgilab beruvchi asosiy hujjat hisoblanadi. Pudrat shartnomasi buyurtmachi tomonidan bosh pudratchi bilan kapital qurilish rejasiga kiritilgan va o'rnatilgan tartibda tasdiqlangan titul ro'yxatlariga ega bo'lgan qurilishlarning butun davriga tuziladi. Zarur bo'lganda bosh pudratchi muayyan turdagi ishlarni bajarish uchun subpudratchi vazifasini o'taydigan ixtisoslashgan tashkilotlarni jalb qilish huquqiga ega. Bunda ishlarning o'rnatilgan muddatlarda bajarilishi hamda sifati uchun bosh pudratchi javobgar hisoblanadi.

Xo'jalik usulida qurilish ishlari biznes subyektining quruvchi bo'linmalari tomonidan olib boriladi. Qurilishga ixtisoslashgan tashkilotlar jalb qilmagani bois,

[104] https://uz.wikipedia.org/wiki/Pudrat_shartnomasi_asoslari



Published: 23.12.2024
**Cite this article:** Yakubov Ulug'bek Kosimovich (2024). Tugallanmagan qurilish va qurilish ob'ektlari tannarxini tahlili. Emro Science and Education, 1(4). https://doi.org/10.5281/zenodo.24320851
*© 2024 The Author(s). Published by Emro Science and Education. This is an open access article.*

buyurtmachi bir vaqtning o‘zida pudratchi ham hisoblanadi. Xo‘jalik usulida qurilish usuli odatda biznes subyektlarida kichik hajmdagi ishlarni bajarishda, pudratchi tashkilotlarni jalb qilish samarasiz deb topilganda qo‘llaniladi. Shu sababdan, iqtisodiy tahlilning obyekti bo‘lib bosh pudratchi va buyurtmachi o‘rtasida yuzaga keladigan munosabatlar hisoblanadi. Shu o‘rinda qayd etish kerakki, qurilishni amalga oshirish va asosiy vositalarni ishga tushirishda buyurtmachi hamda pudratchi ishtrok etgani bois ular iqtisodiy tahlilning obyektlari sifatida qaraladi.

Qurilish ishlarining tannarxi uning xarajatlar smetasiga va “Nazorat o‘lchovi” natijalari bo‘yicha ma’lumotlariga asosan tahlil etiladi. Qurilish xarajatlari smetasini o‘z ichiga materiallar, ishchi kuchi, asbob-uskunalar, transport, shuningdek, yuk xatlari xarajatlari va foydani o‘z ichiga oladi. Shu sababdan, loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish arxitektorlar, muhandislar, quruvchilar va baholovchilar kabi turli mutaxassislarning o‘zaro harakatini talab qiladi. Ushbu hujjatlar qurilish yoki loyihani rejalashtirish, boshqarish va nazorat qilish hamda uni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan byudjet va resurslarni baholash uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

**Masalaning qo‘yilishi va tadqiqot ususli.**

Qurilish montaj ishlarining yakuniy xarajatlari buyurtmachi va pudratchi tomonidan qurilish tugagandan so‘ng, haqiqiy (ijro hujjatlari) nazorat natijalari asosida hamda O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 20-maydagi 321-son qarorida belgilangan tartibga ko‘ra “Nazorat o‘lchovi” natijalari bo‘yicha aniqlanadi.

“Pudratchi” tomonidan, tanlov shartlariga muvofiq elektron platformaga tender tashkilotchisi tomonidan yuklangan loyiha-smeta hujjatlaridagi to‘liq bajariladigan ish hajmlarining qiymati barcha soliqlar, yig‘imlar va ajratmalarini o‘z ichiga olgan xolda qo‘shilgan qiymat solig‘i bilan joriy narxlarda 1 970 079 073 so‘m (bir milliard to‘qqiz yuz yetmish million yetmish to‘qqiz ming yetmish uch so‘m)ni tashkil etadi, shundan:

7. 2024-yilda moliyalashtirilgan mablag‘ - 906 190 287 so‘m;
8. 2024-yilda moliyalashtiriladigan mablag‘ - 101 609 713 so‘m;
9. qolgan 863 775 120 so‘m manzilli ro‘yxatga asosan pul mablag‘lari ajratilganidan so‘ng moliyalashtiriladi;

- 2024-yilda moliyalashtiriladigan mablag‘ - 98 503 953 so‘m (kafolat summasi).

Ekspert tekshiruvi natijalariga ko‘ra, qurilish montaj-ishlarining dastlabki qo‘shilgan qiymat solig‘i bilan va buyurtmachining boshqa xarajatlarisiz 2 415 476 382 ming so‘m bo‘lib, 267 591 665 ming so‘mga kamaytirilib, qiymati 2 147 884 717 ming so‘mni tashkil etdi. Xususan:

1. Asbob - uskunalar - 140 857 920 ming so‘m;
2. Qurilish-montaj ishlari - 1 726 867 921 ming so‘m;
3. Qo‘shilgan qiymat solig‘i - 280 158 876 ming so‘m (1-jadval).

1-jadval.

**Qurilish ishlari rejasining xarajatlari bo‘yicha bajarilishining tahlili.**

| | Ko‘rsatkichlar | Reja | | Haqiqat | | Farqi (+;-) | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | summa | salmoq | summa | salmoq | summa | salmoq |
| | Asbob - uskunalar | 247894586 | 10,263 | 140857920 | 6,558 | -107036666 | -3,705 |
| | Qurilish-montaj ishlari | 180714542 1 | 74,815 | 172686792 1 | 80,399 | -8027750 0 | 5,583 |
| | Qo‘shilgan qiymat solig‘i | 360436375 | 14,922 | 280158876 | 13,043 | -8027749 9 | -1,878 |

| | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | **JAMI** | **24154 76382** | **1 00** | **21478 84717** | **1 00** | **- 267591665** | **-** |

Jadval ma’lumotlariga ko‘ra, qurilish montaj ishlarining yakuniy xarajatlari nazorat natijalari asosida 2 415 476 382 ming so‘m ekanligi aniqlanadi. Qurilish xarajatlari rejalashtirilganidan 267591665 (2147884717-2415476382) ming so‘mga kamaygan. Qurilish qiymatining pasayishi qurilish materiallari, foydalaniladigan mashina va mexanizmlar narxlari va boshqalarga aniqlik kiritish hisobidan kelib chiqdi. Jumladan, “Nazorat o‘lchovi” natijalari bo‘yicha asbob – uskunalardan 107036666 (140857920-247894586) ming so‘m, qurilish - montaj ishlaridan 80277500 (1726867921-1807145421) ming so‘m iqtisod qilingan. Qurilish materiallarining pasayishi hisobidan, qo‘shilgan qiymat solig‘ining ham 80277499 (280158876-360436375) ming so‘m kam soliq to‘langan.

Smeta xarajatlari ma’lumotlariga binoan, qurilish ob’ekti xarajatlari tarkibida qurilish montaj ishlari salmoqli, 70-80 foizni tashkil etgan. Qolgan xarajat moddalari 10-14 foiz ulushga egaligi aniqlangan.

Tadqiqot davomida nazariy tahlil va sintez, induksiya va deduksiya, tizimli yondashuv, abstrakt-mangiqiy fnkrlash, monografik kuzatuv, ma’lumotlar tadqiqoti usullaridan foydalangan xolda qurilishda faoliyat ko‘rsatayotgan subyektlar mahsuloti tannarhi tahlili ishlab chiqildi.

**Tadqiqot natijalari va ularning muhokamasi.**

Shaharsozlik kodeksida obyektning qurilishi loyiha-smeta hujjatlarida belgilangan muddatda tugallanmagan taqdirda, ushbu muddat, loyiha-smeta hujjatlarida mavjud bo‘lmaganda esa, qurilish boshlangan sanadan e’tiboran ikki yil ichida tugallanmasa, ob’ektning qurilishi (bundan yakka tartibdagi uylarni qurish uchun berilgan yer uchastkalari mustasno) tugallanmagan deb hisoblanadi[105].

Soliq kodeksining 266-moddasida tugallanmagan qurilish obyektlari jumlasiga: - ushbu qurilish obyektiga doir loyiha-smeta hujjatlarida belgilangan normativ muddatda qurilishi tugallanmagan; - agar qurilishning normativ muddati belgilanmagan bo‘lsa, – ushbu obyektlarning qurilishiga vakolatli organning ruxsati olingan oydan e’tiboran 24 oy ichida qurilishi tugallanmagan[106] asosiy fondlar kiritilgan.

Amaldagi qonun va qonun osti hujjatlariga binoan tugallanmagan qurilish obyektlarining xususiy mulkdorlariga quyidagi ta’sir choralari qo‘llaniladi:

1. Yuridik shaxslar soddalashtirilgan tartibdan soliq solishning umumbelgilangan tartibiga o‘tkaziladi;

2. Soliq imtiyozlari va preferensiyalar amal qilishi to‘xtatilib, ushbu ob’yektlar bo‘yicha mol-mulk solig‘i va yer solig‘i 2 karra miqdorda, 6 oy o‘tgandan so‘ng – 5 karra, 12 oy o‘tgandan so‘ng va keyinchalik – 10 karra miqdorda to‘lanadi.

Ushbu tartib Soliq kodeksining 269, 269[1], 283, 348-moddalarida hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 4.09.2018 yildagi “Ishlab chiqarish maydonlaridan foydalanish samaradorligini oshirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar

[105] O‘zbekiston Respublikasining Shaharsozlik kodeksi (O‘zR 04.04.2002 y. 353-II-son Qonuni bilan tasdiqlangan). https://nrm.uz/contentf?doc=23605_o%E2%80%98zbekiston_respublikasining_shaharsozlik_kodeksi_(o%E2%80%98zr_04_04_2002_y_353-ii-son_qonuni_bilan_tasdiqlangan)&products=1_

[106] O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi (01.01.2020). https://lex.uz/docs/-4674902

to‘g‘risida”gi PQ–3928-son qarorida belgilangan. Shu sababdan, “Tugallanmagan qurilish ob’yekti” atamasi nimani anglatishiga jiddiy e’tibor qaratib, uning yuzaga chiqishini oldini olish, hisobini yuritish maqsadga muvofiq.

**Xulosa.**

Soliq kodeksining 269, 269[1], 283, 348-moddalarida hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 4.09.2018 yildagi “Ishlab chiqarish maydonlaridan foydalanish samaradorligini oshirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ–3928-son qarorida belgilangan. Shu sababdan, “Tugallanmagan qurilish ob’yekti” atamasi nimani anglatishiga jiddiy e’tibor qaratib, uning yuzaga chiqishini oldini olish, hisobini yuritish maqsadga muvofiq.

Qurilish tannarxini baholashda nazorat o‘lchovi: - nazorat organlari faoliyatining qonuniyligi, xolisligi va oshkoraligi; - yuridik va jismoniy shaxslarning huquqlari hamda qonuniy manfaatlarini himoya qilish; -shaharsozlik faoliyati subyektlarining moliyaviy-xo‘jalik faoliyatiga aralashmaslik kabi tamoyillar asosida olib borilishi zarur.

**Foydalanilgan adabiyotlar.**

1. O‘zbekiston Respublikasining Shaharsozlik kodeksi (O‘zR 04.04.2002 y. 353-II-son Qonuni bilan tasdiqlangan).
2. O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi (01.01.2020). https://lex.uz/docs/-4674902
3. Budjetnoma 2025-2027. Iqtisodiyot va moliya vazirligi.
4. Vahobov A.V., Ibragimov A.T., Yakubov U.Q. “Boshqa tarmoqlarda iqtisodiy tahlil xususiyatlari”. – T.; 2004. - 404 b.
5. www.lex.uz (O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi).
6. http://www. ziyonet.uz (Axborot ta’lim tarmog‘i).
7. https://www.naab.uz. – O‘zbekiston Pespublikasi Buxgalterlar va auditorlar milliy asosiatsiyasining rasmiy sayti.
8. www.imv.uz (Iqtisodiyot va moliya vazirligi rasmiy sayti).
9. www.stat.uz (O‘zbekiston Pespublikasi Statistika agentligi).
10. https://uz.wikipedia.org/wiki/Pudrat_shartnomasi_asoslari.

## O‘ZBEKISTONNING KONCHILIK SANOATI JAHON BOZORIDA RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH UCHUN INVESTITSIYALARNI JALB QILISH

Botirov Shoxbos Soibjon o‘g‘li
TerDMAU assistenti
Shodiyev Ramshid Muxtor o‘g‘li
TerDMAU talabasi

**Annotatsiya:** O‘zbekistonning konchilik sanoatiga investitsiyalarni jalb qilishning ahamiyati katta. Bu jarayon mamlakatning iqtisodiy salohiyatini oshirish, yangi texnologiyalarni joriy etish, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va ekologik xavfsizlikni ta'minlashga yordam beradi. Investitsiyalarni jalb qilish uchun davlat tomonidan qulay sharoitlar yaratish, xususiy sektorni jalb qilish, xalqaro hamkorlikni kuchaytirish va yangi loyihalarni rivojlantirish muhimdir. O‘zbekistonning konchilik